

G.A.Ozodbekova

Andijon Davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: Qozonxon bobosi Chingizzon kabi shoxona qasrda o'tirib, bazmuzamshid qilishdan, ot minib ovga yoki dushman ustiga bostirib borib qilich chopishni ma'qul ko'rarkan. Ammo suyukli xotini unga qiz tug'ib bergen kundan boshlab, u bu odatlarini tashlab, kecha-kunduz qizalog'i bilan ovunishni, u bilan mashg'ul bo'lishni xamma narsadan ustun qo'yadigon bo'libdi. U kelajakda qizim bir saroy mulki bo'lsin, deb farzandiga Saroymulkhonim deb ism qo'yibdi. Vaqt Qozonxon navqiron chog'ida yo'lbarsga qarata uzgan kamon o'qidak tez uchib, Saroymulkhonim o'n oltiga to'libdi. YOsh xonchaning xusni-jamolini ko'rganning xushi boshidan uchib, tili kalimaga kelmay qolarkan. O'sha davr shoirlaridan biri "Agar uning xusni-jamolini so'z ila tasvirlamoqchi bo'lsak, ojizlik qilib, gunohga botish mumkin, zero qizning latofatini ta'riflashga qodir so'lar dunyoda yo'qdir"- deb aytgan ekan. Darxaqiqat bizni kunga yetib kelgan Saroymulkhonimning chizilgan suratlaridan, ularni go'zalligini ta'riflashga til ojizligiga amin bo'lamic.¹⁵

Kalit so'zlar: Ko'ragon, Bibixonim, ilmi-tolib, "katta honim", Qan'o. idda, mumiyolash.

KIRISH

Saroymulkhonim chig'atoy ulusiga mansub mo'g'ul honlaridan Qozonxonning qizi bo'lib, 1341 yili xozirgi Qashqadaryo voxasidagi Zanjirsaroyda tavallud topgan. Amir Qozonxon davlatda tartib o'rnatish yo'lida har hil qarshiliklarga uchtab 1346 yili bir guruh beklar tomonidan o'ldiriladi. Bu fojea' yuz berganda Saroymulkhonim atiga 5 yoshda bo'ladi. 1355 yil, Saroymulkhonim balog'atga yetgach (14 yoshida), Movarounnahr hukmdori amir Qozog'on nabirasi amir Husaynga nikohlanadi. 1370 yil Balxda Amir Temur va Amir Husayn o'rtasida bo'lib o'tgan janngda, Amir Temur Husaynni qatl qilib, Movaraunnahr hukmdorligini o'z qo'liga oladi. Tabiiyki amir Husaynning haramidan bir necha xotinlarni tanlab olib, idda muddati uch oy o'tgach, o'z nikohiga oladi. Bular: Amir Husayn haramining ulug' bekasi – Tarmashirinxonning qizi Suyunch Qutlug' Og'o. Qozonxon qizi – Saroymulkhonim, Bayon Sulduzning qizi – Ulus Og'o, Xizr YAsuriyning qizi – Islom Og'o hamda Tag'oy Turkin Hotunlar edi. Sohibqiron Amir Temur Saroymulkhonimni o'z nikohiga o'lgach, "ko'ragon" unvoniga musharraf bo'ladi. Ko'ragon iborasi mo'gulcha so'z bo'lib, "kuyov" degan ma'noni ifodalaydi. Zero, Saroymulkhonim mo'g'ul xonlarining birini qizi bo'lgani tufayli

1. Хуршид Даврон. Бибихоним қиссаси ёхуд тугамаган достон. Тошкент, 2/2014.

sohibqiron Amir Temur mo'g'ul xonining kuyovi, ya'ni "Amir Temur Ko'ragon" nomini olgan edi.

Metod. Sohibqiron Amir Temur Saroymulkhonimni o'z nikohiga kiritgunga qadar, xaramida boshqa xotinlari xambor edi. Lekin xon avlodiga mansub Saroymulkhonim xaramdagi barcha malikalardan ulug'roq hisoblanib, "katta honim" yohud "bibixonim" degan unvonga noil bo'ladi. Albatta, bunday e'zozga musharraf bo'lish uchun aql-zakovat, did-farosat, fikrlash doirasining ulkanligi bosh omil bo'lgan. Zotan, tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Saroymulkhonim zamonasining yuksak iqtidorli, farosatli, aqli, tadbirkor va aql-zakovat sohibasi, husn-latofat bobida xam benazir edi. Bibixonim insonparvar, vatanni sevguvchi, mamlakatning siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy xayptidan yaxshigina xabardor bo'lgan, saltanat ishlarida dono maslahatlari bilan qatnashib turgan ayol edi. Ayniqsa, ilm-ma'rifikatga alohida e'tibor ila qarar, tolibi ilmlarga homiylik qilar edi. Sohibqiron Amir Temurning xarbiy yurushlarida Bibixonim ko'pincha birga yurgan. Tarixiy manbalarning yakdillik bilan bergen ma'lumotlariga ko'ra, o'ta ziyrak, tadbirkor Bibixonim sultanatni boshqarishda vujudga kelgan ayrim muammolarni xal qilishda o'zining o'qilona maslaxatlari bilan faol qatnashgan. Amir Temur Bibixonimga oshkora bo'yusunmasada, biroq uning oqilona maslahatlari o'zida qandaydir extiyoj sezib turgan. Naql qilishlaricha, Amir Temur eronga qarshi yurish boshlaganida, Isfag'onning qamali ko'pga cho'zilib, qo'shinni ozuqa bilan ta'minlashga mablag' etishmay qoladi. Nixoyat, Amir Temur Samarqandga chopar yo'llab, Bibixonimga maktub jo'natadi. Maktub qisqa bo'lib, "Qo'shinning zahirasi tugadi, xazinadan zar yuboring", deyilgandi. Bibixonim maktub mazmunidan ogox bo'lgach, maktubning orqa tomoniga "Ulug' amir, zaringiz tugagan bo'lsa, siyosatingiz xam tugadimu?" – deb yozadi va choparga tutqazadi. Amir Temur maktubni olgach, Bibixonimning kinoyali zamzamasini o'ylab-o'ylab, nixoyat bir qarorga keladi: lashkargohda so'yib eyilgan qo'y, qoramol, ot va tuya suyaklarini o'sha kuniyoq yig'dirib, turli xajmlarda qirqitib, katta xajmdagisiga katta qiymat, kichigiga kichik qiymat belgilab, unga po'lat muxrni qizditib tamg/a bostirgan xamda muvaqqat pul o'rnida muomalaga kiritishga farmon beradi. Natijada, qo'shni shahar va qishloqlarda suyak pulga qo'shin uchun oziq-ovqat sotib olinadi. Tez kunda Isfaxon shahri taslim bo'lgach, suyak pullar zar bilan almashtiriladi.¹⁶

Natijalar. Xalq Bibixonimni juda yaxshi ko'rар, u haqida bir qator go'zal afsonalar tildan tilga ko'chib yurardi. Misol uchun bi afsona bunday. 1399 yilda Xind safaridan zafar bilan qaytgan Sohibqiron Amir Temur juda katta masjid va madrasa qurdirish rejasini o'rtaga qo'ydi. Movaraunnaxrning eng moxir muhandislari, tajribali ustalari, Ozarbayjon, Fors, Xindiston va boshqa mamlakatlarning toshtaroshlari, xammasi bo'lib 200 kishi birgalikda qurilish asoslarini qo'ydilar. Tog'larda 500 kishi toshlarni yo'nib, tayyolab shaxarga yuborib turardi. Aravalarga qo'shilgan xo'kizlar, 95 ta Xindistondan keltirilgan tog'da-tog'day fillar ishga qo'yilgandi. Temur bir necha oygina qurilishni

2. Тұрғұн Файзиев. Темурий маликалар. Тошкент, 2020.

o'zi, shaxzodalar, amirlar bilan birga kuzatb turdi, ammo tezda yana uzoq muddatli yangi safarlarga otlandi. Qurilishga raxbarlikni Bibixonimga topshirdi. Bibixonimga oid afsonalarning aksariyati o'sha davrga oitdir. Bibixonim reining qaytishiga sovg'a bo'lsin deb dunyoda tengi yo'q ulug'vor masjidni biqazishni o'ylab qo'ydi. U quruvchilarni chaqirib, ularni ilxomlantirish uchun, qimmatbaxo oltin-kumush, bebaxo toshlar uyumini ko'satdi. Ularning xar biri ishiga yarasha shu boyliklar bilan mukofotlanishini aytdi. Ish qizib ketdi. Minoralar ko'klarga cho'zildi, keng maydonda oq marmar ravoqlar qatori tiklandi, xavorang minora ko'k toqi bilan baxslashayotgandek edi. Faqat ravoqning eng baland arqini tepadan birlashtirishi kerak edi. Ammo yosh me'mor ishni bitqaza qolmas, orqaga surar edi, chunki u Bibixonimni yuzini to'sib turgan ro'moli qurilishni ko'rgani kelganda shamolda uchib ketganda yuzini ko'rgan edi. SHunda u Bibixonimni sevib qolgandi, qurilishni tamomlasa xonimni xech qachon ko'ra olmasligini bilardi. Temur esa Samarqandga yaqinlashar va sabrsizlik bilan kelaverish to'g'risida ijozat so'rab to'xtovsiz choper yuboradi. Bibixonim me'morga, ishni tezroq bitqazing, deb yolvorardi. Me'mor esa, buning evaziga ko'z ko'rib, qulq eshitmagan bir xadya bitta bo'sa so'raydi. Bibixonim turli ranglarga bo'yalgan tuhumlarni yuborib, po'sti archilsa xammasining mazasi bir degan gapni uqtirmoqchi bo'lardi. Bu xam yordam bermagach bo'sa berishga rozi bo'ladi, ammo me'mor o'payotganda chiroyli yuziga qo'lini qo'yishga ulguradi. Ammo bo'saning xarorati shu qadar kuchli ediki, qo'l to'siqligiga qaramay baribir yuzida dog' qoldirdi. Temur oldin masjidni ko'rib rosa zavqlangan edi, keyin birdan xotinining yuzidagi dog'ni ko'rib qoladi. Masala ochilib qoladi. Bu vaqtda esa me'mor o'ziga va shogirdiga qanot yasab masjid ustidan uchib ketmoqchi bo'ladi. Ammo u sakrab tog'ri yerga qulaydi, shogirdi esa bu holatni ko'rib qanotlarga dum qo'shish kerakligi tushunib qo'ladi va o'zining qanotiga dum qo'shib uchib ketadi shu voqeadan so'ng xalq og'zida "Ustozdan o'tgan shogirt" degan naql paydo bo'ladi. SHu voqeadan so'ng Bibixonim Amir Temurga bor gapni aytib beradi, Temur esa javoban "O'zinga qadrli istagan narsangni olib ket" deganda, Bibixonim tnda Sohibqiron uxlayotgan payt uni olib ketadi. ertalab Temur uyg'onib Bibixonimdan nega bunday qilganini sababini so'rasha Bibixonim "Mening eng qadrligim sizsiz" degan ekanlar.

Munozara. Amir Temur saroyida joriy qilingan tartibga ko'ra, chet ellik elchilarini qabul qilish marosimlarida xukmdor yonida hotinlari xam ishtirot etishgan. Ispaniya qiroli Genrix III ning Samarqand xukmdori Amir Temur xuzuriga yuborgan elchisi Ryui Gonzales de Klavixoning yozishicha, 1404 yil 8 sentabr dushanba kuni Amir Temur Samarqand chetidagi "Dilqusho" bog'ida elchilarni qabul qiladi. Qabul marosimi katta ziyofat va tantana bilan boshlangan. Klavixoning xikoya qilishicha, qabul marosimida xukmdor Temutning yonida Saroymulkhonim boshliq boshqa hotinlari xam yuzlariga parda tashlab o'tirganlar. Ispan qiroli yuborgan xadyalar orasida xukmdorga ko'proq qizil movut ma'qul bo'lgan. Bu xaqda u o'z hotinlari, avvalo Bibixonim bilan fikrashdi. 1404 yil 17-oktabr juma kuni Bibixonim xam katta ziyofat beradi. Ziyofatda boshqa elchilar qatorida ispan elchisi Ryui Gonzales de Klavixo xam

qatnashdi. Klavixo Temur bog'larida berilgan ziyofatlarning to'kin-sochinligi, bog'lardagi rang-barang ipak chodirlar, undagi oltin-kumush jixozlangani xaqida maroq ila xikoya qiladi.

Xulosa. Bibixonim qurdirgan madrasa XIV asr ohiri va XV asr boshlarida Samarcanddagi madrasalar orasida ulkan va maxobatliligi jixatidan ajralib turgan. Madrasaga zamonasining etuk mudarrislari tayinlanib, ular tolibi ilmlarga diniy va dunyoviy ilmlardan dars bergenlar. Bibixonim madrasa tolibi ilmlarining axvoldidan tez-tez xabar olib, ularga xomiylik qilib turardi. Rivoyatlarga ko'ra, Bibixonim o'z odaticha, qosh qoraygach, o'zining yaqin kanizlari bilan kiyimlarini o'zgartirib, madrasa tomon yo'l oladi. Negaki, Bibixonim madrasa tolibi ilmlarining axvolini ruxiyasi, kim qanday tirikchilik o'tqazayotganiyu tunda qanday ish bilan mashg'ul ekanliklarini zimdan tekshirib turar edi. Bir kecha xonim madrasa madrasaga yetib kelganda xujralarning deyarlik barchasida chiroq o'chgan, tolibi ilmlar tun og'ushida uyquga cho'mgan edilar. Faqat birgina xujrada sham yonib, ichkaridan tovush eshitilardi. Bibixonim kanizlarini madrasa xovlisida qoldirib, o'zi oxista yurib, xujra eshigi yonida ichkariga qulq soladi. Tolibi ilmlardan biri ikkinchisiga deydi:

- Qani, aytingchi birodari aziz, xozir ko'nglingiz nima istayabdi?

- E, birodar nima bo'lardi, qo'y go'shti, qo'y yog'ida damlangan bir lagan seryog' palov bo'lsa, bilakka paxta bog'lab, bir to'yib er edik-da,-deya javob bergach, sherigidan so'radi:-Ho'sh jo'rajon, o'zingizni ko'nglingiz nima istayabdi?

- E, birodar, ko'nglimda tamoman boshqacha orzu. Ushbu madrasa soxibasi Bibixonim dunyoda tenggi yo'q go'zal, deb eshitganmen. Qaniydi iloji bo'lsa, shu honim bilan bir kecha suxbatlashsam,-jabob berdi birinchi tolibi ilm.

SHerigidan bunday qaltis so'zni eshitgan jo'rasi:-E, ovozingizni o'chiring, birodar, nima deyayotganingizni bilasizmi, tag'in bir falokatni boshlamang,-deb unga dashnom berdi. So'z shu erga etganda Bibixonim xujra eshigidan uzoqlashib, kanizlari bilan saroyga qaytadi.

Ertasi kun peshindan og'gach, nadimlardan uch-to'rttasiga madrasaga borib, barcha tolibi ilmlarni saroyga olib kelishlarini buyurdi. Tolibi ilmlar bu nogaxoniy taklifdan xayajonda, nadimlar kurshovida saroyga keladilar. Faqat ikki tolibi ilm bu taklifdan shubxalanar va tundagi qaltis orzuning qurbanbi bo'lish daxshatidan qaltirardi. Barcha tolibi ilmlarni katta mexmonxonaga kiritib, ziyofat beradilar. Ziyofat ohirida qo'y go'shti, qo'y yog'ida taylorlangan seryog' palov tortiladi. SHundan so'ng, mexmonhonaga kanizlar qurshovida, yuziga parda tortgan xolda Bibixonim kirib keladi va mahsus o'rindiqqa o'tirgach, tolibi ilmlar orasidan tungi suxbatdoshlarni tanib o'z huzuriga chorlaydi:

- Ho'sh, mulla yigitlar, bilakka paxta bog'lab eydigon palov bo'libdimi?- deydi.

Xaligacha qo'rquvdan qaltirab turgan ikki tolibi ilm darxol tiz cho'kib:

- Qulluq honoyim, ta'rifdan ziyoda palov bo'libdur, madxiga til ojizlik qiladur,-deya ta'zim qilibdilar.

Bibixonim birinchi tolibi ilmga yuzlanarkan:

- Endi sizning orzuungizga kelsak. Ko'rib turganingizdek, men soxibqironning nikoxlaridamen, binobarin siz birlan suxbat qurmog'im mumkin emas. Binoan alayxi o'zimning go'zal kanizlarimdan birini sizga nikoxlab berurmen? Rozimidursiz?-deydi.

Xaligacha tili kalimaga kelmay, es-xushini yo'qotayozgan tolibi ilm, darxol o'zini honim oyog'iga tashlab:

- Uzr, afv etsunlar honoyim, bu beadab qullarning gunoxidan o'tsunlar,-deb iltijo qiladi.

SHu asnoda Bibixonimning ishorasi bilan mexmonhonaga qozi va imom kirib keladi va barcha tolibi ilmlar guvoxligida kanizlaridan birini tolibi ilmga nikoxlab qo'yadilar...

1405 yil 18 fevralda soxibqiron Amir Temur vafot qilgach, Samarcand taxtiga uning nabirasi Xalil Sulton Mirzo (1384-1411) o'tirdi. Ibn Arabshoxning bergen ma'lumotlariga ko'ra, Xalil Sulton Mirzoning hotini SHod Mulk begin 1408 yilda Bibixonimni zaxarlab o'ldirgan. Bibixonimning jasadini o'zi qurdirgan madrasasi yonidagi maqbaraga "tosh tobut"ga solib, mumiyolanib dafn qilingan. Soxibqiron Amir Temur Bibixonimdan farzand ko'rмаган. Ammo soxibqiron o'z o'g'li SHoxrux Mirzoni, suyukli nabiralari Muxammad Sulton Mirzo, Halil Sulton Mirzo, Ulug'bek Mirzo va boshqa mirzolarni bevosita zukko Bibixonim tarbiyasiga topshirgan edi. Tarixda o'chmas iz qoldira olgan Bibixonim barchamizni tasavvurimizda nafaqat go'zal yoki aqlii, yana honimni biz zukkoligi va ilmi bilan xam qayta shakllandi degan umiddaman. Bunday zukko ayollar tarixda ko'p bo'lsa xam ular xaqida ma'lumotlar saqlanib qolmagan, Bibxonim esa mening tasavvurimda aqlii, zukko va tarixda o'z nomini qoldira olgan ayol sifatida qayta shakllandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Xurshid Davron. Bibixonim qissasi yoxud tugamagan doston. Toshkent, 2/2014.
2. Edgar Allan Po. Buyuk Temur. Toshkent,2016.
3. Turg'un Fayziyev. Temuriy malikalar. Toshkent, 2020.
- 4.Boriboy Axmedov. Amir Temurni yod etib. Toshkent,2018.
5. Yuriy Xalaminskiy. Afsona yo'llari bo'ylab. Moskva, 1978.
6. Ibn Arabshox. Amir Temur tarixi. Toshkent,1973.